
TOSHLOQDA G'ALLA O'RIM-YIG'IMI QIZG'IN DAVOM ETMOQDA

Shu kunlarda yurtimizda g'alla o'rim-yig'imi qizg'in va uyushqoqlik bilan olib borilmoqda. Zahmatli mehnat evaziga yetishtirilgan hosilni nest-nobud qilmay yig'ib olish esa muhim vazifa sanaladi.

"Muqaddasxon ziynati" fermer xo'jaligi rahbari Foziljon Ernazarov sohada yarim asrlik tajribaga ega. Bu yil ushbu fermer xo'jaligi a'zolari ham har gektar yerdan o'rtacha 100 syentnerdan g'alla olishni maqsad qilishgan.

-Qishloq xo'jaligidagi islohotlar tufayli fermer xo'jaliklari har jihatdan ravnaq topib bormoqda,-deydi u. -

Aynan o'zimizning fermer xo'jaligi misolida ham bu yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Tumanda g'alla mavsumi tobora qizg'in pallaga kirmoqda.

2023-06-10 10:00:39